

## TEATR SAN'ATIDA STANISLAVSKIY SISTEMASINING O'RNI

L.T.Urazmbetova – professor

R.P.Qazaqbaeva – o'qituvchi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

“Rejissura san'ati” kafedrası

**Tayanch so'zlar:** Stanislavskiy, sistema, teatr, aktyorlik mahorati, sahnaviy haqiqat, “magar” printsipli, diqqat markazi, emotsional xotira, jismoniy harakatlar, o'zbek teatri.

**Ключевые слова:** Станиславский, система, театр, актерское мастерство, сценическая правда, принцип «если бы», фокус, эмоциональная память, физические движения, узбекский театр.

**Key words:** Stanislavsky, system, theater, acting, skills, stage truth, «if only» principle, focus, emotional memory, physical movements, Uzbek theater.

Teatr san'ati tarixida Konstantin Sergeyevich Stanislavskiy (1863–1938) nomi alohida o'rin tutadi. U yaratgan sistema aktyorlik san'atiga ilmiy yondashuv olib kirib, teatrdagi “yangi davr”ni boshlab berdi. Stanislavskiy nazariyasidan oldin ko'plab aktyorlar obrazni tashqi effektlar orqali - ovoz balandligi, yuz ifodasi, liboslar va sahna dekoratsiyasi yordamida ifodalashga moyil edilar. Ammo bunday yondashuv tomoshabinda ishonchlikni uyg'ota olmas edi.

Stanislavskiy esa teatrnı “inson ruhiyatining oynasi” sifatida ko'rdi va aktyor ijodini ichki dunyo bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidladi. Uning fikricha, aktyor “hayotni sahnaga ko'chiruvchi” emas, balki “hayotni sahnada qayta yaratuvchi ijodkor”dir [1]

1. Sistema mohiyati: Stanislavskiy sistemasining markazida aktyorning ichki va tashqi kechinmalarini uyg'unlashtirish yotadi. U “san'at orqali haqiqat” tamoyilini ilgari surib, teatrning asosiy vazifasi - tomoshabinni hayotiylikka ishontirish ekanini ta'kidladi. “Sahnada chinakam san'at faqatgina aktyor obrazni o'z ichida his qilgandagina tug'iladi”. [2]

2. Stanislavskiy sistemasining asosiy tamoyillari

a) Sahnaviy haqiqat

Aktyor obrazni sahnada shunday talqin qilishi kerakki, tomoshabin uni “haqiqat” sifatida qabul qilsin. Bunda aktyor obrazning psixologik asosini his qilishi zarur. Misol: Agar aktyor kasal odamni ijro qilsa, u kasallikka “o'xshash” harakatlarni emas, balki ruhiy og'riqni ichki kechinma orqali yetkazishi kerak.

b) “Magar” printsipli

Bu tamoyil aktyordan savol berishni talab qiladi: “Agar men shu vaziyatda bo'lsam, nima qilardim?” Shu tarzda aktyor obrazni hayotiy tajribasi bilan bog'laydi. Misol: Romeo rolini ijro qilayotgan aktyor chin sevgi hissini o'z qalbidan topib, obrazi orqali uni tabiiy aks ettiradi.

c) Diqqat markazi

Stanislavskiy diqqatni uch darajaga bo'lib o'rganadi: kichik (atrofidagi buyumlar), o'rta (sahnadagi hamkor aktyorlar) va katta (umumiy spektakl). Misol: Aktyor stulni ko'chirayotganida kichik doiraga, suhbat davomida hamkor aktyorga - o'rta doiraga, umumiy dramatik vaziyatda esa tomoshabinga murojaat qilishi kerak.

d) Emotsional xotira

Aktyor o'zining shaxsiy hayotiy tajribalaridan foydalanib, obrazni ishonarli qiladi. Misol: Onasidan ayrilgan qahramon rovida aktyor o'z hayotida boshdan kechirgan yo'qotishlarini eslab, chin his-tuyg'ularni yaratadi.

e) Jismoniy harakatlar metodi

Stanislavskiy ruhiy holat jismoniy harakatlar orqali namoyon bo'lishini ta'kidladi. Misol: Qo'rqan obrazni yaratishda aktyorning nafas olish tezlashishi, gavdasi titrashi, ko'zlarida hayrat ifodasi tabiiy ravishda qo'rquvni ko'rsatadi.

3. Stanislavskiy va jahon teatr san'ati Stanislavskiy sistemasining ta'siri dunyo bo'ylab keng yoyildi. AQShda L.Strasberg, Stella Adler va S.Meisner uning g'oyalaridan foydalanib, “Method Acting” yo'nalishini yaratdilar. Bu uslub keyinchalik Gollivud aktyorlik maktabining poydevoriga aylandi. Marlon Brando, Al Pacino, Robert De Niro kabi mashhur aktyorlar o'z san'atini aynan Stanislavskiy metodiga tayanib qurishdi.

4. Sistema va o'zbek teatr san'ati

O'zbek teatrining shakllanishida ham Stanislavskiy sistemasining ta'siri beqiyosdir. 1920–1930-yillarda Moskva va Peterburg teatr maktablarida ta'lim olgan o'zbek aktyorlari bu metodni milliy teatr sahnasiga olib kirishdi.

Hamza nomidagi teatrdagi sahnalashtirilgan ilk psixologik dramalar - Cho'lponning “Yorqinoy”, Abdulla Qodiriyning dramatik sahna asarlari Stanislavskiy metodining elementlari bilan boyitildi. Bu esa o'zbek teatrida sun'iylikdan xoli, hayotiy obrazlarni yaratishga asos bo'ldi.

Stanislavskiy sistemi teatr san'atida inqilobiy burilish yasadi. U aktyorni oddiy ijrochi emas, balki ichki dunyosi orqali obrazni qayta yaratuvchi ijodkor sifatida qaradi. Uning besh asosiy tamoyili - sahnaviy haqiqat, "magar" printsiipi, diqqat markazi, emotsional xotira va

jismaniy harakatlar - bugungi teatr va kino san'atida ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. O'zbek teatrining shakllanishida ham bu metodning ahamiyati katta bo'lib, bugungi kunda yosh aktyorlar ta'limida muhim metod sifatida qo'llanilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stanislavskiy K. S. Mening hayotim san'atda. Moskva: Iskusstvo, 1926.
2. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. Moskva: Iskusstvo, 1938.
3. Stanislavskiy K. S. Rejissyorning daftaridan. Moskva: Iskusstvo, 1933.
4. Qodirov A. O'zbek teatr san'ati tarixi. Toshkent: Fan, 1987.
5. Strasberg L. Method Acting. Nyu-York, 1965.

**REZYUME.** Mazkur maqolada K.S.Stanislavskiy tomonidan ishlab chiqilgan aktyorlik sistemasining nazariy asoslari va uning teatr san'atidagi o'rni keng qamrovda tahlil qilingan. Xususan, sistemasining besh asosiy tamoyili - sahnaviy haqiqat, "magar" printsiipi, diqqat markazi, emotsional xotira va jismoniy harakatlar metodining mohiyati, ularning ijodiy jarayondagi roli va teatr amaliyotidagi qo'llanishi ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Shuningdek, sistema jahon teatr san'ati hamda o'zbek teatr maktabining shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri haqida batafsil fikr yuritiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье дан комплексный анализ теоретических основ актёрской системы К.С. Станиславского и её роли в театральном искусстве. В частности, с научной точки зрения раскрывается сущность пяти основных принципов системы – сценической правды, принципа «если», фокуса внимания, эмоциональной памяти и метода физических движений, их роль в творческом процессе и применение в театральной практике. Также подробно рассматривается влияние системы на мировое театральное искусство и формирование узбекской театральной школы.

**SUMMARY.** This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations of the acting system developed by K. S. Stanislavsky and its role in theatrical art. In particular, the essence of the five main principles of the system - stage truth, the principle of "if", the focus of attention, emotional memory and the method of physical movements, their role in the creative process and application in theatrical practice are covered from a scientific point of view. The influence of the system on world theatrical art and the formation of the Uzbek theatrical school is also discussed in detail.